

## OLIV TA'LIM TASHKILOTLARI FAOLİYOTINI RAQAMLASHTIRISHNING XORIY TAJRIBASI

Yusupova Dildora Turadjanovna

Alfraganus universiteti NOTT,  
Menejment va marketing kafedrası dotsenti  
E-mail: [yusupovad1983@gmail.com](mailto:yusupovad1983@gmail.com)

### Annotatsiya

Maqolada raqamlashtirishning xorijiy tajribalari va ularning O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimiga tatbiq etilishi masalalari o'rganilgan. Zamonaviy raqamli texnologiyalar oliy ta'lim tashkilotlari uchun yangi imkoniyatlarni ochib beradi. Ular ma'lumotlar yig'ish va tahlil qilish, o'zaro hamkorlikni kuchaytirish, samaradorlikni oshirish, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va yangi o'qitish usullaridan foydalanish imkonini yaratadi. Shuningdek, maqolada "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasidagi islohotlar, elektron hukumat va raqamli ta'lim ekotizimlarini yaratish bo'yicha amalga oshirilayotgan tadbirlar tahlil qilingan. Xorijiy davlatlarning raqamlashtirishdagi muvaffaqiyatli amaliyotini chuqur tahlil qilish orqali O'zbekiston oliy ta'lim tizimidagi raqobatbardoshlikni oshirish va xalqaro standartlarga moslashuvini ta'minlash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** oliy ta'lim, raqamlashtirish, raqamli muhit, raqamli iqtisodiyot, elektron ofis.

### Аннотация

В статье рассматривается зарубежный опыт цифровизации и его применение в системе высшего образования Республики Узбекистан. Современные цифровые технологии открывают новые возможности для организаций высшего образования. Они обеспечивают сбор и анализ данных, расширение сотрудничества, повышение производительности, персонализированное обучение и новые методы обучения. Также в статье анализируются реформы в рамках стратегии «Цифровой Узбекистан – 2030», проводимая деятельность по созданию электронного правительства и цифровых образовательных экосистем. Путем углубленного анализа успешной практики цифровизации зарубежных стран были разработаны рекомендации по повышению конкурентоспособности системы высшего образования Узбекистана и обеспечению ее адаптации к международным стандартам.

**Ключевые слова:** высшее образование, цифровизация, цифровая среда, цифровая экономика, электронный офис.

### Abstract

The article studies foreign experiences of digitalization and their implementation in the higher education system of the Republic of Uzbekistan. Modern digital technologies open up new opportunities for higher education institutions. They allow for data collection and analysis, enhanced interaction, increased efficiency, personalized learning, and the use of new teaching methods. The article also analyzes

the reforms within the framework of the "Digital Uzbekistan – 2030" strategy, measures to create e-government and digital education ecosystems. Through an in-depth analysis of the successful practices of foreign countries in digitalization, recommendations are developed to increase the competitiveness of the higher education system of Uzbekistan and ensure its adaptation to international standards.

**Keywords:** higher education, digitalization, digital environment, digital economy, electronic office.

## KIRISH

Raqamli iqtisodiyot mamlakat va mintaqalar iqtisodiyotining shakli va tuzilishini tubdan o'zgartirib yuboradi. Ba'zi kasblar yo'qolib, yangilari paydo bo'ladi. Bugungi kunda aholi tomonidan elektron (virtual) mahsulotlarni xarid qilish hajmi oshib bormoqda, oddiy tovarlar va xizmatlar esa yanada qulayroq tarzda iste'molchilarga yetib bormoqda. Ichki bozorlarda raqobatni rivojlantirish, bozorlarni kengaytirish va jahon bozorlarida ayrim mamlakatlar tarmoqlarining raqobatbardoshligini oshirish bilan bog'liq jarayonlar jadallashmoqda. Raqamli transformatsiya inson hayotining ijtimoiy paradigmasini o'zgartirishga olib keladi. Bu yangi bilimlar olish, ufqlarni kengaytirish, yangi kasb-hunarlarini shakllantirish va malaka oshirish uchun misli ko'rilmagan imkoniyatlarni ochib beradi. Ta'lim tashkilotlari, ayniqsa oliy ta'lim tizimining raqamli transformatsiyalashuvi ta'limni yangi bosqichga olib chiqish va raqamli ta'lim ekotizimlarini yaratishga qaratilgan faoliyatlar asosida sifatli ta'limga erishishni maqsad qiladi. O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimining asosiy vazifasi — dunyoning rivojlangan 50 mamlakati qatoriga kirish. Bu boradagi islohotlar xalqimiz uchun munosib sharoit yaratishga qaratilgan. Shu sababli, qisqa davr ichida oliy ta'lim sohasida mavjud vaziyatni o'zgartirish raqamlashtirish zaruriyatini yuzaga keltirdi. Shu bois, O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, ayniqsa davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son<sup>1</sup> Farmoniga binoan, ushbu strategiya iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha va davlat boshqaruvi tizimining jadal raqamli rivojlanishini ta'minlash, shu jumladan elektron davlat xizmatlarini takomillashtirishni maqsad qiladi. Strategiya raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustuvor yo'nalishlarini belgilaydi. Shuningdek, BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari va Elektron hukumatni rivojlantirish reytingidagi ustuvor vazifalardan kelib chiqib, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son<sup>2</sup> Farmoni oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini

<sup>1</sup> <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>

<sup>2</sup> <https://lex.uz/ru/docs/-4545884>

belgilaydi. U zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini yangi bosqichga olib chiqish vazifalarini ko'zda tutadi. Bundan tashqari, ushbu hujjatga binoan, oliy ta'lim tashkilotlarining 85 foizi 2030-yilgacha bosqichma-bosqich Yevropa kreditlarni ko'chirish va jamg'arish kredit-modul tizimi (ECTS – European Credit Transfer and Accumulation System)ga o'tishi rejalashtirilgan. Mazkur holatlar oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatini raqamlashtirishda xorijiy tajribalarni o'rganishni kun tartibiga qo'yadi.

### ADABIYOTLAR SHARHI


Iqtisodiyot ilmiy jihatdan "raqamli ekotizimlar", "raqamli muhit", "raqamli jamoalar", "raqamli iqtisodiyot" va "raqamlashtirish" kabi tushunchalar keng o'rganilmoqda. Odamlar ongsiz ravishda "raqamlashtirish" atamasining ma'nosini tushunishadi, lekin ular uchun aniq ta'rif berish ko'pincha qiyin. Bu quyidagi faktlar bilan bog'liq: bu atama yaqinda paydo bo'ldi va har qanday holatda ham uni haqiqat deb atash mumkin emas; bu muddatda hali ham to'liq atama yo'q. Shuni tushunish kerakki, bu atama kontekst bilan chambarchas bog'liq, shuning uchun bizningcha, ushbu xulosa doirasida ishlatilishi mumkin bo'lgan "raqamli" so'zini tushuntirish kerak. Raqamli iqtisodiyot kompyuter texnologiyalariga asoslangan iqtisodiyotdir. Raqamli iqtisodiyot axborotlashtirishdan farqli o'laroq, axborot texnologiyalarini joriy etish bilan cheklanib qolmay, internet va yangi raqamli texnologiyalarga asoslangan sohalarni va ish jarayonlarini ham qamrab oladi. Xorijda hamda mamlakatimizda keng ishlatilgan "informatizatsiya" va "kibernetika" kabi atamalar ilmiy va amaliy iste'moldan chiqib, tobora ko'proq "raqamlashtirish" yoki "raqamli transformatsiyalar" iboralari keng qo'llanila boshlandi. Raqamli iqtisodiyot tushunchasiga nisbatan ikki xil yondashuv mavjud bo'lib, birinchisi klassik yondashuv hisoblanadi. Klassik yondashuvga ko'ra, raqamli iqtisodiyot – bu raqamli texnologiyalarga asoslangan iqtisod bo'lib, ayni paytda faqatgina elektron mahsulotlar va xizmatlar sohasini tavsiflaydi. Klassik misollarga tele-tibbiyot, masofaviy ta'lim, media kontentini sotishni keltirish mumkin (kino, televizor, kitoblar va boshqalar). Ikkinchisi zamonaviy yondashuv bo'lib, unga ko'ra raqamli iqtisodiyot – raqamli texnologiyalardan foydalangan holda iqtisodiy ishlab chiqarishdir. Falsafiy jihatdan bu atama juda keng tavsiflanadi: "raqamli iqtisodiyot bizning haqiqatimizni to'ldiruvchi virtual muhitdir."

Moskva davlat universiteti professori A.A. Engovatova fikriga ko'ra: "Raqamli iqtisodiyot – bu ma'lumotni ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash va uzatishning yangi usullari, shuningdek, raqamli kompyuter texnologiyalari asosida ishlab chiqilgan iqtisodiyotdir. "Rossiya Elektron Kommunikatsiyalar Assotsiatsiyasi vakili S.A. Plugotarenkoning talqiniga ko'ra, "Raqamli iqtisodiyot ekotizimi raqamli informatsion texnologiyalar yordamida qo'shimcha qiymat hosil qiladigan bozor segmentidir." Bu borada [www.glossary.ru] tematik tushuntirish lug'atlar xizmati quyidagi ta'rifni beradi: "Raqamli iqtisodiyot (tarmoq, raqamli, elektron, virtual iqtisodiyot) – elektron tarmoqlar orqali amalga oshiriladigan iqtisodiy faoliyat (raqamli telekommunikatsiya). Texnologik jihatdan, tarmoq iqtisodiyoti – bu yuridik

shaxslarning birgalikdagi faoliyat yuritish, o‘zaro munosabatga kirishish va aloqa qilishlari mumkin bo‘lgan muhit." Avstraliya Aloqa va raqamli iqtisodiyot boshqarmasi bergan ta‘rifiga ko‘ra, "Raqamli iqtisodiyot – bu internet, mobil va sensor tarmoqlari kabi platformalar orqali amalga oshiriladigan ijtimoiy va iqtisodiy faoliyatning global tarmog‘i." Aslida, bu internet tarmog‘idan foydalanish imkoniyati – mehnat unumdorligini oshirish, kompaniyaning raqobatbardoshligi va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga asoslangan iqtisod modelidir. Angliya strategiyasida raqamli iqtisodiyot tushunchasi raqamli sektorning barcha ishlarini va raqamli bo‘lmagan sohalarida ishlayotgan barcha ishlarni o‘z ichiga oladi. Asos sifatida raqamli iqtisodiyot "toza" sanoat tamoyillariga asoslanib shakllantiriladi; tanlov mezonlari elektron vositalar orqali ma‘lumotlarni yig‘ish, uzatish va qayta ishlash uchun tovar va xizmatlar ishlab chiqarishdir. Ishlab chiqilgan strategiyada ma‘lumotlar iqtisodi ostida yuqorida sanab o‘tilgan "toza" tarmoqlar kontekstida to‘plangan ko‘plab statistik ma‘lumotlar o‘rin oladi. M. Kastellsning fikriga muvofiq, raqamli iqtisodiyot axborot iqtisodiyotining ikkinchi bosqichi, deb hisoblanib, axborot jamiyatining nazariy asoslari hisoblanadi. Ushbu tushuncha Jahon banki mutaxassislar tomonidan iste‘molga o‘zgacha talqinda aks etib, "Raqamli iqtisodiyot – bu tizim axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy munosabatlar," ya‘ni tezkor iqtisodiy rivojlanishning yangi paradigmasi hisoblanadi.

## METODOLOGIYA

Tadqiqot maqsadidan kelib chiqib ilmiy maqola uchun 1-rasmda taklif etilgan metodologik yondashuv taklif etiladi (1-rasm).



**1-rasm. Oliy ta‘lim tashkilotlari faoliyatini raqamlashtirishning xorij tajribasini o‘rganish bo‘yicha metodologik yondashuv<sup>1</sup>**

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

Tadqiqot jarayonida O‘zbekistonning oliy ta’lim muassasalarining mavjud ta’lim tizimini raqamlashtirish jarayoni xorijiy tajribalar bilan taqqoslanadi. Xorijiy modellardan o‘rganilgan amaliyotlarni moslashtirish bo‘yicha takliflar tayyorlanadi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda jamiyat va iqtisodiyotda oliy ta’lim tashkilotlarining ahamiyati jadal o‘zgarib bormoqda. Oliy ta’lim tashkilotlari talabalar, o‘qituvchilar va moliyaviy mablag‘larni jalb qilishda bir-biri bilan raqobatlashish muhitini shakllantirmoqda. Bunday holatda zamon bilan hamnafas bo‘lgan va yangi raqamli imkoniyatlardan foydalanuvchi oliy ta’lim tashkilotlarining boshqa sohalarga nisbatan ustunligi kuzatilmog‘da.

Raqamlashtirish ta’lim va boshqaruv uchun yangi imkoniyatlar yaratib, ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish, o‘zaro hamkorlik va muloqotni yengillashtiradi. Uning afzalliklari samaradorlikni oshirish, talabalar faolligini oshirish, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim va yangi o‘qitish usullaridan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari, raqamlashtirish oliy ta’lim tashkilotlarining o‘quv dasturlarini, professor-o‘qituvchilar, xodimlar faoliyatini va resurslarni boshqarishni optimallashtirish imkonini beradi.

Raqamlashtirishning asosiy afzalliklaridan biri talabalarning faolligini oshirish imkoniyatini berishdir. Onlayn ta’lim platformalari, ijtimoiy tarmoqlar va mobil ilovalar kabi raqamli vositalardan foydalangan holda oliy ta’lim tashkilotlari talabalarni motivatsiya qilish va ularni jalb etuvchi interaktiv hamda qiziqarli ta’lim tajribalarini yaratishi mumkin. Shuningdek, raqamlashtirish oliy ta’lim tashkilotlariga o‘yin va virtual haqiqat kabi yangi o‘qitish usullaridan foydalanish imkonini beradi. Bu usullar talabalarga murakkab tushunchalar va nazariyalarni osonroq tushunishga yordam beruvchi interaktiv ta’lim tajribalarini yaratishga xizmat qiladi.

Raqamlashtirish talabalarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini oshirish, ularda zarur kompetensiyalarni shakllantirish orqali ishga joylashish ko‘rsatkichlarini ko‘paytirish hamda turli vositalar orqali ma’lumotlarni yetkazish va tushuntirish usullarini qo‘llash orqali oliy ta’lim tashkilotlarining nufuzini oshirishga xizmat qiladi. Bu jarayon mazkur imkoniyatlardan foydalanib, tashkilotlarga qo‘shimcha foyda olish uchun sharoit yaratadi va boshqalarga nisbatan ustunlikni shakllantiradi.

Janubiy Koreya, Belarus va Qozog‘iston Respublikasining oliy ta’lim sohasida o‘quv jarayonini muvaffaqiyatli raqamlashtirish tajribalari o‘rganib chiqildi. Ushbu mamlakatlarning har birida ta’lim jarayonini raqamlashtirishga qaratilgan turli loyiha va dasturlar amalga oshirilgan.

Janubiy Koreyaning ta’lim jarayonini raqamlashtirish tajribasini dunyodagi eng ilg‘or tajribalardan biri deb ta’riflash mumkin. J.Koreyada yuqori tezlikdagi internet tarmoqlari va o‘quv jarayonida texnologiyalardan faol foydalanadigan texnologik jihatdan ilg‘or ta’lim muassasalari mavjud.

Janubiy Koreyada ta’limni raqamlashtirishning asosiy jihatlaridan biri o‘qitish texnologiyalarining keng imkoniyatlaridir. Har bir talaba shaxsiy noutbuk yoki planshetga ega bo‘ladi, o‘qituvchilar esa interaktiv darslar yaratish va talabalar bilan

real vaqtda muloqot qilish imkonini beruvchi maxsus qurilmalardan foydalanadi. Ushbu texnologiyalar ta'lim resurslarini yaratish, o'quv jarayonini boshqarish va talabalarni baholash uchun tatbiq etiladi.

Biroq, boshqa joylarda bo'lgani kabi, ba'zi muammolar mavjud. Masalan, ayrim o'qituvchilar texnologiyalarni qo'llashda qiyinchiliklarga duch keladi va ma'lumotlar xavfsizligi bilan bog'liq muammolar ham uchrab turadi.

Umuman olganda, Janubiy Koreyaning o'quv jarayonini raqamlashtirish tajribasi ta'lim sifatini oshirish va talabalar uchun imkoniyatlarni kengaytirish uchun texnologiyalardan qanday samarali foydalanishni namoyish etadi.

Belarusning ta'lim jarayonini raqamlashtirish bo'yicha tajribasi bir nechta sohalarni qamrab oladi.

Birinchidan, Belarus mamlakatning barcha ta'lim muassasalarini birlashtirgan "Argument" milliy elektron ta'lim muhitini ishlab chiqdi. Ushbu platforma o'qituvchilarga o'quv materiallarini yaratish va nashr qilish, talabalarni onlayn test va baholash, shuningdek, onlayn taraqqiyot jurnalini yuritish imkonini beradi. Bu esa ota-onalar va talabalarga akademik ko'rsatkichlar va o'quv jarayonining boshqa jihatlari haqida ma'lumot olish imkonini yaratadi.

Ikkinchidan, Belarusda elektron darsliklar va kurslar yaratish loyihalari amalga oshirildi. Masalan, boshlang'ich va o'rta maktablar uchun matematika, belorus tili va adabiyoti bo'yicha elektron darsliklar ishlab chiqilgan. Bundan tashqari, o'qituvchilar va talabalar uchun bir qator onlayn kurslar tashkil etilgan.

Shuningdek, Belorussiyada o'qituvchilarga darslar o'tkazish va talabalar bilan real vaqtda muloqot qilish imkonini beruvchi virtual sinflar va onlayn konferensiyalar yaratish loyihalari mavjud. Bu o'qituvchilarga darsga shaxsan qatnasha olmasalar ham, o'quv materiallari va topshiriqlardan foydalanish imkoniyatini beradi. Biroq, boshqa mamlakatlarda bo'lgani kabi, Belarusda ham infratuzilma va ba'zi mintaqalarda texnologiyalar mavjudligi bilan bog'liq muammolar mavjud. Bundan tashqari, ba'zi o'qituvchilar va ota-onalar yangi texnologiyalar bilan ishlashda qiynalishi mumkin.

Umuman olganda, Belorussiyaning o'quv jarayonini raqamlashtirish tajribasi ta'lim sifatini oshirish va talabalar uchun ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish uchun elektron platformalar va texnologiyalardan qanday foydalanish mumkinligini ko'rsatadi. Qozog'iston mamlakatdagi o'quv jarayonini raqamlashtirish bo'yicha faol ish olib bormoqda va bu borada sezilarli natijalarga erishildi. Birinchidan, Qozog'istonda barcha darajadagi talabalar va o'qituvchilar uchun elektron darsliklardan foydalanish imkoniyatini beruvchi "elektron darslik" milliy ta'lim platformasi ishlab chiqildi. Bu talabalarga zamonaviy va xilma-xil ma'lumotlarga kirishga, o'qituvchilarga esa o'zlarining o'quv materiallarini yaratishga imkon beradi. Ikkinchidan, Qozog'istonda o'qituvchilar va ta'lim sohasidagi boshqa mutaxassislarining malakasini oshirish uchun onlayn kurslardan faol foydalanilmoqda. 2018-yilda "elektron maktab" milliy loyihasi ishga tushirildi. Uning maqsadi onlayn kurslar va seminarlar orqali o'qituvchilarning malakasini oshirishdir.

Bundan tashqari, Qozog‘istonda virtual o‘quv xonalari va maktablar tashkil etilgan bo‘lib, ularda talabalar videokonferensaloqa texnologiyalari va onlayn platformalar yordamida masofadan turib ta‘lim olishlari mumkin.

Umuman olganda, Qozog‘istonning o‘quv jarayonini raqamlashtirish tajribasi shuni ko‘rsatadiki, texnologiyalardan foydalanish ta‘lim sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi va talabalar hamda o‘qituvchilar uchun ta‘lim resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Janubiy Koreya, Belorusiya va Qozog‘iston tajribasi shuni ko‘rsatadiki, o‘quv jarayonini raqamlashtirish ta‘limni rivojlantirishning samarali va istiqbolli yo‘nalishi hisoblanadi. Biroq, har bir mamlakatning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish va raqamli texnologiyalarni mahalliy sharoit hamda ehtiyojlarga moslashtirish muhimdir.

Shuni ham ta‘kidlash joizki, Janubiy Koreya, Belorusiya va Qozog‘iston ta‘limni raqamlashtirish sohasida kadrlarni rivojlantirishga katta e‘tibor berishadi. Ushbu mamlakatlarda ta‘lim sohasida raqamli texnologiyalar bo‘yicha mutaxassislar tayyorlashga qaratilgan maxsus dasturlar va kurslar yaratilmoqda. Bu nafaqat ta‘lim sifatini oshirishga, balki umuman IT sohasini rivojlantirishga ham yordam beradi.

Ta‘limni boshqarish tizimi (LMS) – bu ma‘lum bir o‘quv jarayonini rejalashtirish, amalga oshirish va baholash uchun ishlatiladigan dasturiy ta‘minot yoki veb-saytga asoslangan texnologiya. U e-Learning amaliyoti uchun ishlatiladi va eng keng tarqalgan shaklda ikkita elementdan iborat: asosiy funksiyalarni bajaradigan server va o‘qituvchilar, talabalar va ma‘murlar tomonidan boshqariladigan foydalanuvchi interfeysi .

Odatda, ta‘limni boshqarish tizimi o‘qituvchilarga tarkibni yaratish va yetkazib berish, talabalar ishtirokini kuzatish hamda ularning faoliyatini baholash imkoniyatini taqdim etadi. Shuningdek, ta‘limni boshqarish tizimi talabalarga interaktiv xususiyatlardan foydalanish imkoniyatini ham beradi. Bunga tishli munozaralar, videokonferensiyalar va munozarali forumlar kiradi.

LMSlar (Learning Management Systems) tez-tez har xil o‘lchamdagi korxonalar, milliy davlat idoralari, mahalliy hokimiyat organlari, an’anaviy ta‘lim muassasalari va onlayn/eLearning asoslangan muassasalar tomonidan qo‘llaniladi. Tizimlar an’anaviy ta‘lim usullarini takomillashtirishi, shu bilan birga tashkilotlarning vaqtini va mablag‘ini tejashga yordam berishi mumkin.

Samarali tizim o‘qituvchilar va ma‘murlarga foydalanuvchilarni ro‘yxatdan o‘tkazish, tarkibni boshqarish, kalendarlarni tuzish, foydalanuvchilarning tizimga kirishini nazorat qilish, aloqa, sertifikatlarni yaratish va bildirishnomalarni boshqarish kabi funksiyalarni samarali bajarish imkonini beradi.

Oliy ta‘limni raqamlashtirishda Elektron ofisning o‘rni katta bo‘lib, bitta vazifani hal qilish uchun tashkil etilgan turli mutaxassisliklar xodimlari, kompyuter, aloqa va tashkiliy jihozlar, matematik modellashtirish usullari, to‘plam intellektual qo‘llab-quvvatlashning o‘zaro birlashtirib, uning asosiy funksiyalari quyidagilarni o‘z ichiga olishi kerak :

1. Boshqaruv hujjatlarini umumiy qayta ishlashni amalga oshirish, uning haqiqiylikini aniqlash va dizaynni amalga oshirish.
2. Mahalliy miqyosdagi hujjatlarni saqlash.

3. Hujjatlarga qog‘oz nusxalarisiz kirish.
4. Hujjat bo‘yicha mutaxassislarning birgalikdagi masofaviy ishini tashkil etish.
5. Xodimlar o‘rtasida ish joyini tark etmasdan aloqani tashkil etish.
6. Elektron pochtaning ishlashini ta‘minlash.
7. Shaxsiy ma‘lumotlarni qayta ishlashni tashkil etish.
8. Hujjatlarni shakllantirish, ko‘paytirish va nusxalash.
9. Ma‘lumotlar bazalari o‘rtasida axborot almashinuvini tashkil etish. Ma‘lumotlarni kiritish yoki shaxsiy ma‘lumotlar bazalarini shakllantirish va yuritish.
10. Ma‘lumotlarni qayta ishlash bilan bog‘liq hisobotlarni yaratish.
11. Resurslarni boshqarishni tashkil etish.
12. Ijro nazoratini tashkil etish.

Avtomatlashtirilgan axborot texnologiyalari yordamida tizim, ofis ma‘lumotlarini qayta ishlash va qo‘llashning kamida uch bosqichini amalga oshirishni tashkil qilish mumkin: buxgalteriya hisobi, tahlil va yechimlarni ishlab chiqish. Bugungi kunda mahalliy va global internet tarmoqlari alohida yaratish va ulardan foydalanish uchun katta imkoniyatlarga ega bo‘lgan elektron ofis turi – vertikal ofis jadal rivojlanmoqda. Barcha kerakli axborot xizmatlari, mutaxassislar va zarur resurslar keng tarmoqdagi turli kompyuter tugunlari maydonida taqsimlanadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Oliy ta‘lim muassasalari uchun elektron ofisdan foydalanishning afzalliklari quyidagilardan iborat:

1. Ishning qulayligi va tezligi:  
Elektron ofis yordamida o‘qituvchilar, talabalar va ma‘muriyat o‘rtasida tez va oson ma‘lumot almashish, hujjatlarni rasmiylashtirish va navbatda kutish vaqtini qisqartirish mumkin.
  2. Ta‘lim sifatini oshirish: Elektron ofis o‘qituvchilarga interaktiv o‘quv materiallarini yaratish, talabalarning ishini onlayn tekshirish, shuningdek, masofaviy o‘qitish va konsultatsiyalar o‘tkazish imkonini beradi. Bu ta‘lim sifatini yaxshilaydi va yanada moslashuvchan, individual o‘quv jarayonini ta‘minlaydi.
  3. Vaqt va pulni tejash: Elektron ofis qog‘oz hujjatlar, binolarni ijaraga olish va sinflardagi o‘quv jarayoni bilan bog‘liq boshqa xarajatlarni kamaytiradi. Shuningdek, hujjatlarni qayta ishlash va saqlash vaqtini qisqartiradi, bu esa ma‘muriyat va o‘qituvchilar samaradorligini oshiradi.
  4. Ta‘limning mavjudligini oshirish: Elektron ofisdan foydalanish chekka hududlarda joylashgan yoki darslarga qatnashish imkoniyatiga ega bo‘lmagan talabalarga masofadan turib yuqori sifatli ta‘lim olish imkonini yaratadi.
  5. Xavfsizlik darajasini oshirish: Elektron ofis ma‘lumotlar va hujjatlarni raqamli shaklda saqlashga imkon beradi, bu esa qog‘oz hujjatlariga qaraganda yuqori darajadagi xavfsizlikni va axborotni himoya qilishni ta‘minlaydi.
- Ta‘limni boshqarish tizimi (LMS) – bu ma‘lum bir o‘quv jarayonini rejalashtirish, amalga oshirish va baholash uchun ishlatiladigan dasturiy ta‘minot yoki veb-saytga asoslangan texnologiya. LMS o‘qituvchilar va ma‘murlarga

foydalanuvchilarni ro‘yxatdan o‘tkazish, tarkibni boshqarish, kalendarlarni tuzish, foydalanuvchilarning tizimga kirishini nazorat qilish, aloqa, sertifikatlarni yaratish va bildirishnomalarni boshqarish kabi funksiyalarni samarali bajarish imkonini beradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Назарова Ф.Х., Юсупова Д.Т. Халқаро сифат стандартларини Ўзбекистон таълим тизимида қўллаш истиқболлари. Журнал. Иқтисодиёт ва прогнозлар. 2019й. №2 ноябрь сони. 124-129 бетлар

2. Raza SA, Qazi W, Khan KA, Salam J (April 2021). "Social Isolation and Acceptance of the Learning Management System (LMS) in the time of COVID-19 Pandemic: An Expansion of the UTAUT Model". Journal of Educational Computing Research.

3. Aldahwan, Nouf; Alsaeed, Nourah I. (August 2020). "Use of Artificial Intelligent in Learning Management System (LMS): A Systematic Literature Review". International Journal of Computer Applications. (August 2020): 16–26. doi:10.5120/ijca2020920611. S2CID 225363292 – via researchgate.net.